

IQTISODIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Kungiratorov Alisher Shafokatovich

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya Ushbu maqolada iqtisodiy madaniyatni rivojlantirishning nazariy asoslari va uning siyosiy madaniyat bilan bo`g`liqlik jihatlari, shaxsning iqtisodiy bilimlari va iqtisodiy ahamiyatli fazilatlarini haqida fikr yuritilgan.

Kalit so`zlar. Iqtisodiy madaniyat, siyosiy madaniyat, iqtisodiy bilim, siyosiy madaniyat, iqtisodiy munosabat.

Respublikamizda ijtimoiy-iqtisodiy o`zgarishlar, rivojlangan bozor iqtisodiyoti munosabatlari, yoshlarda iqtisodiy bilimdonlikni shakllantirish, maqbullik prinsipiga asoslangan[1] yuksak axloqiy va iqtisodiy madaniyatni tarkib toptirishning me`yoriy asoslari yaratilmoqda.

Iqtisodiy madaniyat - uning mohiyati, mazmuni shundan iboratki, insonlar o`z iqtisodiy bilimlari, e`tiqodlari, amaliy faoliyatlarining birligi tushuniladi. Bunda inson iqtisodiy ongi, faoliyati, munosabati bilan shu jarayonning ichiga kiradi. Iqtisodiy odob - bu insonning iqtisodiy faoliyati jarayonida amalga oshiriladigan izchil ma`naviy - axloqiy xatti - harakatlari majmuidir. Dastlab, iqtisod va madaniyat so`zlarining mazmuniga e`tibor qaratamiz. Iqtisod so`zining izohiga keladigan bo`lsak, "iqtisod" (экономика) - grekcha so`zdan olingan bo`lib, uy xo`jaligini to`g`ri yuritish ma`nosini beradi. Iqtisod - xo`jalik ishi, shuningdek, ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste`mol tizimida shakllanadigan ijtimoiy munosabatlar yig`indisi hisoblanadi. Madaniyat so`zi arabcha "madina" (shahar) so`zidan kelib chiqqan. Arablar kishilar hayotini ikki turga: birini badaviy yoki sahroi turmush; ikkinchisini madaniy turmush deb ataganlar[2]. Badaviylik — ko`chmanchi holda dashtu sahrolarda yashovchi xalqlarga, madaniylik — shaharda o`troq holda yashab, o`ziga xos turmush tarziga ega bo`lgan xalqlarga nisbatan ishlatilgan. Jahon tarixi manbalarida madaniyatning 300 ga yaqin atamallari va tahriflari mavjud bo`lib, bularning barchasining zamirida inson tafakkuri mahsuli yotadi. Har ikkalasini mujassamlashtirganda, ya`ni iqtisodiy madaniyat shaxsga oid bo`lgan, iqtisodiyotda bozor munosabatlariga to`g`ri yondosha oladigan insonlarning yuksak iqtisodiy madaniyati tushuniladi.

Shaxsning iqtisodiy ahamiyatli fazilatlarini shakllantirish jamiyat iqtisodiyotining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishining zarur sharti hisoblanadi[3]. Biroq, so`nggi yillarda mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishi tahlili shuni ko`rsatmoqdaki maxsus nazariy bilimlari bo`lmasda o`z tashkilotchilik xususiyatlariga, ya`ni samaradorlik,

tashabusskorlik, ijodkorlik va boshqa sifat xususiyatlariga tayangan holda faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar iqtisodiy rivojlanish istiqboliga ega bo'lmagan va faqat moddiy foyda olishga qaratilgan juda ko'plab bir kunlik korxonalarining paydo bo'lishiga olib keldi. Bunday korxonalarining faoliyati nafaqat mamlakatdagi iqtisodiy faoliyatni barqarorlashtirishga yordam bermaydi, balki bozor iqtisodiyoti islohotlarini samarali amalga oshirishni shubha ostiga qo'yadi.

Akademik B.T.Lixachevning fikriga ko'ra iqtisodiyot, ijtimoiy munosabatlar va ma'naviy hayotdagi inqirozni bartaraf etish, iqtisodiyotni takomillashtirish mexanizmi sifatida bozorni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun "Bizga muloyim, ishonchlilik va axloqiy yaxlitlik taassurotini beradigan, o'z kuchiga tayanish, va muvaffaqiyatga ishonish, ijodkorlik, zukkolik, xavfli va chalkash vaziyatlarda chetlab o'tish hamda mulohaza yuritish qobiliyatini namoyon etish kabi fazilatlarni tarbiyalash zarur bo'lgan "bozor odami" kerak. B.T. Lixachev tomonidan sanab o'tilgan shaxsiy xususiyatlar asosan iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lib u halollik; so'zning ishonchligi; intizom; aniqlik; tashabbus; majburiyat; xushmuomalalik; xodimga, sherikga, iste'molchiga hurmat kabi insoniy axloq me'yorlariga asoslanadi[5]. Aynan mana shu xususiyatlar bozorning axloqiy va huquqiy qonuniyatlarini belgilab beradi va shu nuqtai nazardan ular, albatta, muhim ahamiyatga ega. Shaxsning iqtisodiy munosabatlarning bozor turiga adekvat moslashuvining sharti iqtisodiy madaniyat tushunchasi bilan birlashtirilgan va shaxs tomonidan iqtisodiy faoliyat jarayonida amalga oshiriladigan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy xususiyatlar majmuasini shakllantirishdir.

XX asrga kelib iqtisodiy madaniyat tushunchasi bilan bog'liq ma'lum bir nazariy baza to'plandi Iqtisodiy madaniyatning metodologiyasi va nazariyasi A.B.Mamanazarov, R.G. Axmetova, V.D. Popova, G.L. Smirnova, A.K. Uledova, V.P. Fofanova, A.A.Sisoevaning ilmiy ishlarida ko'rib chiqilgan[5]. Iqtisodiy madaniyati shakllangan shaxs nafaqat madaniy qadriyatlarini yaratadi, boyitadi va iste'mol qiladi, balki o'z taraqqiyoti jarayonida yuqori erkinlik darajasiga ko'tariladi va bu bilan iqtisodiy madaniyatga shaxsning o'z-o'zini rivojlantirishning eng muhim vositasi sifatida qarash o'rinli bo'ladi. Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar sharoitida iqtisodiy madaniyatning ahamiyati muttasil ortib bormoqda.

Jamiyat hayotidagi kelib chiqishi va ijtimoiy roli bo'yicha iqtisodiy madaniyat siyosiy madaniyat bilan chambarchas bog'liq. Bu asosan jamiyatning iqtisodiy va siyosiy munosabatlarining birligini tushuntiradi. Demak, iqtisod bevosita siyosatda aks etib, siyosat qonun ijodkorligi orqali jamiyatning iqtisodiy manfaatlarini tasdiqlaydi. Iqtisodiy madaniyat, o'z navbatida, siyosiy pozitsiyalarning tashuvchisi, lekin siyosiy to'planish jarayoni unda iqtisodiy voqelikni aks ettirish va o'zgartirish orqali sodir bo'ladi[3]. Jamiyatning siyosiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar muqarrar ravishda iqtisodiy yo'nalishning o'zgarishiga olib keladi va aksincha, iqtisodiy faoliyatning yangi shakllarini izlash, qoida tariqasida, siyosiy munosabatlarning

o'zgarishiga olib keladi. So'nggi yillarda Yaqin Sharq, Markaziy Osiyo, Rossiya, Ukraina, Afgonistonda yuzaga kelgan vaziyat iqtisodiy madaniyat siyosiy madaniyat bilan chambarchas bog'liqligining tasdig'idir.

Iqtisodiy madaniyatning tarbiyaviy funksiyasi ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslashishga va bozor munosabatlarining yuqori darajasida ishlash mexanizmini amalga oshirishga qodir shaxsni shakllanishiga javobgardir. Bozor iqtisodiyoti rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi, bozor sharoitidagi asosiy haxs - madaniyatli tadbirkordir. Hozirgi kunda iqtisodiyotni barqarorlashtirishning eng muhim vositasi yangi bozor munosabatlari sharoitida zamonaviy iqtisodiy madaniyatni tez o'zlashtirishdir.

Shunday qilib, iqtisodiy madaniyat umumiy madaniyatning boshqa quyi tizimlariga xos bo'lgan bir qator xususiyatlarni organik ravishda o'zlashtiradi, lekin bundan tashqari, u o'ziga xos xususiyatlarga ham ega, buning natijasida biz uni mustaqil tushuncha sifatida qabul qilamiz. Bunday xususiyat, birinchi navbatda, iqtisodiy madaniyatni amalga oshirish uchun iqtisodiyotni asosiy soha sifatida ajratishdir. Amerikalik olim K.Gess yosh avlodga qaratilgan "Dunyo shunday yaralgan" asarida iqtisodni oliyjanoblik va foyda birikmasi sifatida baholab: "Iqtisodiyot, birinchi navbatda, sizning shaxsiy xatti-harakatlaringizga asoslanadi. Chetdan (hukumatdan, boylardan) yordam umid qilib, aldayotgan bo'lsangiz, iqtisod ham qashshoq va firibgar bo'ladi". Albatta, bu ta'rif iqtisodiyot darsliklaridan bizga ma'lum bo'lgan klassik ta'riflardan juda farq qiladi[5]. Biroq, u konsepsiyaning mohiyatini to'g'ri va tushunarli aks ettiradi. Iqtisodiy munosabatlarning murakkab mexanizmining iqtisodiy madaniy shaxs sifatlariga ya'ni "xarakterning kuchliligi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati va nihoyat, o'zini o'zi qadrlash hissi" kabilarga chambarchas bog'liqligini ochib beradi. Sog'lom iqtisod shunday shaxslarga muhtoj. Mustaqil hayotga qadam qo'ygan bunday fazilatlarga ega insonlar muvaffaqiyatga ishonishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 488 b.
2. Булатов С.С.Амалий санъат қисқача луғати. Toshkent. ЎБМ. 1992.
3. Sariqov Y., Xaydarov B. Iqtisodiy bilim asoslari. Darslik. 9-sinf.T.:2019.
4. Xayrullayev M.M. Ma'naviy yuksalish yo'lida, T.,1998.
5. Mamanazaraov A.B. Talaba-yoshlarning iqtisodiy madaniyati: Monografiya. Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. - 192 b.